

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**



TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
Davlat oliy ta'lim tashkiloti

60610100 – Axborot tizimlari va texnologiyalari
Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60610100 – Axborot tizimlari va texnologiyalari

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: AKMURADOV BAXTIYOR URALOVICH

University of Management and Future Technologies

falsafa doktori (PhD)



A'zo: AHMED MOHAMED AZIZ ISMAIL

Central Asian University

falsafa doktori (PhD)

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260124
Xulosa raqami	1083
Xulosa sanasi	17.06.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Piridastgir ko'chasi, 2-uy. Guvohnoma: MAS № 0000313, 08.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Axborot tizimlari va texnologiyalari
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60610100
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	MAS № 0000313, 08.07.2026
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60610100 – Axborot tizimlari va texnologiyalari
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60610100 – Information Systems and Technologies
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60610100 – Информационные системы и технологии
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Axborot texnologiyalari mutaxassisi, informatika fani o'qituvchisi
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	240 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Piridastgir ko'chasi, 2-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofoiq / muvofoiq emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofoiq / qisman muvofoiq / muvofoiq emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Qisman muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Qisman muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

1-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishidagi mezonlarning asosiy qismi muvofiq deb topildi, 1.4-mezon esa qisman muvofiq deb baholandi. Tahlillar natijasida ta'lim dasturini amalga oshirish uchun mas'ul tarkibiy tuzilmani tashkil etish va uning faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha zarur tashkiliy-huquqiy asoslar yaratilgani aniqlandi. Institutning tashkiliy tuzilmasi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida shakllantirilgan bo'lib, "Aniq fanlar pedagogika oliy maktabi" hamda uning tarkibidagi "Matematika va informatika" kafedrasining vakolatlari, vazifalari va funksiyalari tegishli nizomlar hamda buyruqlar bilan belgilangan. Kafedra faoliyati ta'lim, ilmiy-tadqiqot, ilmiy-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy va kadrlar salohiyatini rivojlantirish yo'nalishlarini qamrab oladi. Shu bilan birga, mehnat bozori ehtiyojlari, ta'lim sohasidagi o'zgarishlar hamda ilmiy-tadqiqotlarning so'nggi tendensiyalarini muntazam tahlil qilish va ularning natijalarini ta'lim dasturini takomillashtirish jarayoniga integratsiya etish mexanizmini yanada takomillashtirish zarurligi aniqlandi. Axborot texnologiyalari sohasi jadal rivojlanayotganini inobatga olgan holda, mehnat bozori tahlili natijalarini dalillar bilan asoslash, ish beruvchilar ehtiyojlari va texnologik o'zgarishlarning ta'lim dasturiga ta'sirini tizimli hujjatlashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Umuman olganda, tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash tizimi ta'lim dasturini amalga oshirish uchun yetarli darajada shakllantirilgan bo'lib, 1.4-mezon bo'yicha mehnat bozori monitoringi va ilmiy rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish mexanizmlarini yanada kuchaytirish tavsiya etiladi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida 60610100 – Axborot tizimlari va texnologiyalari ta'lim dasturi mazmunan, tashkiliy va metodik jihatdan shakllantirilgani hamda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq ishlab chiqilgani aniqlandi. Ta'lim dasturini ishlab chiqish va tasdiqlashning ichki tartiblari belgilangan bo'lib, o'quv reja va fan dasturlarini Davlat ta'lim standartlari, malaka talablari hamda ilg'or xalqaro tajribalar asosida shakllantirish mexanizmlari amaliyotga joriy etilgan. Dastur maqsadlari, kutilayotgan o'quv natijalari va shakllantiriladigan kompetensiyalar o'zaro uzviy bog'langan holda ishlab chiqilgan. Pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasasi uchun Axborot tizimlari va texnologiyalari ta'lim dasturida texnik kompetensiyalarni pedagogik tayyorgarlik bilan uyg'unlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi, chunki bitiruvchiga "Axborot texnologiyalari mutaxassisi, informatika fani o'qituvchisi" kvalifikatsiyasi beriladi. Shu bois ta'lim dasturi zamonaviy axborot texnologiyalari bo'yicha kasbiy bilim va ko'nikmalarni pedagogik kompetensiyalar bilan integratsiyalash orqali bitiruvchilarning ham ta'lim muassasalarida, ham axborot texnologiyalari sohasida samarali faoliyat yuritishiga xizmat qiladi. Ta'lim dasturi mazmuni amaldagi normativ talablar hamda zamonaviy mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiq shakllantirilgan.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

3-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida 60610100 – Axborot tizimlari va texnologiyalari ta'lim dasturining o'quv rejasi, sillabuslari, baholash tizimi, amaliyot mexanizmlari hamda akademik boshqaruv jarayonlari tizimli va izchil yondashuv asosida ishlab chiqilgani aniqlandi. Ta'lim dasturi mazmuni zamonaviy axborot texnologiyalari sohasidagi global rivojlanish tendensiyalariga mos ravishda shakllantirilgan bo'lib, o'quv rejasida dasturlash, algoritmlar, ma'lumotlar bazalari, kompyuter tarmoqlari, operatsion tizimlar va sun'iy intellekt kabi zamonaviy fanlar majmuasi o'z aksini topgan. Baholash jarayonlarining shaffofligi, akademik halollik tamoyillariga rioya etilishini ta'minlovchi mexanizmlar hamda amaliyot jarayonlarini tashkil etish tartiblari belgilangan bo'lib, ular talabalarning nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirish va kasbiy kompetensiyalarini izchil rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'quv jarayoni va baholash tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq shakllantirilgan.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

4-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida 60610100 – Axborot tizimlari va texnologiyalari ta'lim yo'nalishi bo'yicha qabul parametrlarini shakllantirish va talabalar faoliyatini tashkil etish kompleks yondashuv asosida amalga oshirilgani aniqlandi. Bunda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, strategik rivojlanish maqsadlari, mehnat bozori ehtiyojlari hamda ta'lim muassasasining moddiy-texnik va kadrlar salohiyati inobatga olingan. Qabul jarayonlari Davlat ta'lim standartlari, Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari va oliy ta'limni rivojlantirishga oid me'yoriy hujjatlar asosida shaffof tashkil etilgan. Talabalarning o'qishini ko'chirish, akademik harakati hamda ularni akademik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari belgilangan. Axborot tizimlari va texnologiyalari yo'nalishi uchun qabul kvotasining kompyuter sinflari, laboratoriyalar va amaliy mashg'ulotlar uchun mavjud ish o'rinlari bilan mutanosibligi ta'lim sifatini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Talabalar faoliyatini tashkil etish tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq shakllantirilgan.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

5-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida oliy ta'lim muassasasida 60610100 – Axborot tizimlari va texnologiyalari ta'lim yo'nalishini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy-huquqiy, akademik va boshqaruv asoslari shakllantirilgani aniqlandi. Professor-o'qituvchilar tarkibi son jihatdan ta'lim dasturini amalga oshirish uchun yetarli bo'lib, ilmiy daraja va ilmiy unvonga ega pedagoglar ulushi amaldagi normativ talablarga mos hamda yuqori darajada shakllangan. Professor-o'qituvchilarni qayta tayyorlash, malakasini oshirish va ilmiy faoliyatga jalb etish mexanizmlari yo'lga qo'yilgan. Axborot tizimlari va texnologiyalari yo'nalishi uchun professor-o'qituvchilarning zamonaviy dasturiy vositalar, axborot texnologiyalari va raqamli platformalar bilan ishlash bo'yicha amaliy tajribaga ega bo'lishi ta'lim sifatini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Inson resurslarini boshqarish tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq shakllantirilgan.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

6-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida moddiy-texnik ta'minot yo'nalishidagi mezonlarning asosiy qismi muvofiq deb topildi, 6.4-mezon esa qisman muvofiq deb baholandi. Tahlillar natijasida ta'lim jarayonini zamonaviy talablar darajasida tashkil etish uchun zarur moddiy-texnik baza, o'quv-uslubiy ta'minot, raqamli ta'lim muhiti, laboratoriya sharoitlari hamda yordamchi resurslar shakllantirilgani va amaliyotda qo'llanilayotgani aniqlandi. Auditoriyalar va laboratoriyalar zamonaviy kompyuter texnikalari hamda ixtisoslashgan dasturiy vositalar bilan jihozlangan bo'lib, bu talabalarning nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalar bilan mustahkamlash imkonini yaratadi. Shu bilan birga, inklyuziv ta'limni tashkil etish bo'yicha bino va inshootlarni moslashtirish, maxsus o'quv materiallari hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan barcha ta'lim oluvchilar foydalanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yanada takomillashtirish zarurligi aniqlandi. Moddiy-texnik ta'minot tizimi ta'lim dasturini amalga oshirish uchun yetarli darajada shakllantirilgan bo'lib, 6.4-mezon bo'yicha inklyuziv ta'lim infratuzilmasini belgilangan talablar darajasiga yetkazish tavsiya etiladi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash mexanizmi (1.4-mezon) dalillar bilan yetarli asoslanmagan.
- ✓ Inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallari hamda AKT vositalaridan foydalanish imkoniyati (6.4-mezon) qisman muvofiq deb baholandi.
- ✓ Ayrim indikatorlar bo'yicha dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish maqsadga muvofiq.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Mehnat bozori tahlili va ilmiy tendensiyalarni o'rganish natijalarini hamda ularning dasturga ta'sirini dalillar bilan asoslash.

- ✓ Inklyuziv ta'lim uchun binolar va jihozlarni moslashtirish, maxsus o'quv materiallarini yaratish.
- ✓ Ixtisoslashgan dasturiy vositalar va laboratoriya bazasini kengaytirish.
- ✓ Professor-o'qituvchilarning zamonaviy AKT kompetensiyalarini oshirish.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, Buxoro davlat pedagogika institutining 60610100 – Axborot tizimlari va texnologiyalari bakalavriat ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy ta'minot, tashkiliy-boshqaruv tizimi, ta'lim dasturi mazmuni, o'quv jarayoni, talabalar faoliyatini tashkil etish, inson resurslari hamda moddiy-texnik ta'minot kompleks tahlil qilindi. Tahlillar natijasida ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy-huquqiy asoslar ("Aniq fanlar pedagogika oliy maktabi" va "Matematika va informatika" kafedrası) shakllantirilgani, ta'lim dasturi Davlat ta'lim standartlari, malaka talablari va ilg'or xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgani, o'quv rejasida dasturlash, algoritmlar, ma'lumotlar bazalari, kompyuter tarmoqlari hamda sun'iy intellekt kabi zamonaviy fanlar majmuasi o'rin olgani aniqlandi. Professor-o'qituvchilar tarkibi ta'lim dasturini amalga oshirish uchun yetarli bo'lib, ilmiy darajaga ega pedagoglar ulushi amaldagi me'yoriy talablarga mos shakllangan, auditoriyalar va laboratoriyalar esa zamonaviy kompyuter texnikasi hamda ixtisoslashgan dasturiy vositalar bilan jihozlangan. Baholash yakunlariga ko'ra, tashkiliy-boshqaruv, ta'lim dasturi mazmuni, o'quv jarayoni, talabalar faoliyati, inson resurslari va moddiy-texnik ta'minot yo'nalishlari belgilangan akkreditatsiya mezonlariga muvofiq deb topildi, bunda tashkiliy-boshqaruv yo'nalishida 1.4-mezon va moddiy-texnik ta'minot yo'nalishida 6.4-mezon qisman muvofiq deb baholandi. Aniqlangan kamchiliklar ta'lim dasturini amalga oshirishga to'sqinlik qilmaydi hamda ularni bartaraf etish ta'lim sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, 60610100 – Axborot tizimlari va texnologiyalari bakalavriat ta'lim dasturi belgilangan akkreditatsiya mezonlari va talablariga muvofiq hisoblanadi. Shu asosda ta'lim dasturi MUVOFIQ deb topildi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	02.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	4-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

